

Rozilik izohi tushinchasi

Rozilik izohi tushinchasi bu jinsiy aloqa bilan shug'ullanish uchun ongli ravishda, o'z ixtiyori bilan tomonlarning o'zaro qabul qilgan qaroridir. Rozilik og'zaki yoki ishoralar bilan ifodalanishi mumkin, agar shu so'zlar va ishoralar jinsiy aloqa bilan shug'ullanishga rozilikni aniq anglatsa. Rozilik ma'nosi jins, jinsiy orientatsiya, jinsiy shaxsiyat yoki jinsiy qarashlariga qarab o'zgarmaydi.

Jinsiy aloqa bilan shug'ullanishga rozilik yoki o'zaro tomonlar orasida dastlabki kelishilgan jinsiy aloqa boshqa har qanday jinsiy aloqa bilan shug'ullanishga rozilik bo'lib hisoblanmaydi.

Jinsiy aloqa tashabbuskori narkotik va/yoki spirtli ichimlik ta'siri ostida bo'lishidan qat'i nazar rozilik olishi shart.

Rozilik berilishi va shu o'rinda, istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin.

Agar shaxs noqobil, ya'ni shaxsda ongli ravishda jinsiy faoliyatda ishtirok etishni tanlash qobiliyati sust bo'lgan hollarda rozilik olib bo'lmaydi. Noqobillikka shaxs ongsiz holatda yoki uyquda bo'lishi, beixtiyor cheklanganligi, yoki shaxs boshqacha rozilik bera olmasligi sabab bo'lishi mumkin. Mastlik darajasiga qarab, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar yoki boshqa moddalar ta'siri ostidagi shaxs o'z roziligini bildirishga noqobil bo'lishi mumkin.

Rozilikni zo'rlov, qo'rqitish, majburlash yoki tahdid orqali olish mumkin emas.

Agar rozilik qaytarib olinsa yoki boshqa berilmasa, jinsiy faoliyat to'xtashi shart.

Giyohvand modda va spirtli ichimliklarni iste'mol qilganlarga amnistiya qo'llanilishi

Har bir talabaning sog'ligi va xafsizligi Rockland Community College kampusi uchun birinchi darajadagi ahamiyatga ega. RCC kampusi talabalarning alkogol ichimligi va/yoki giyohvand modda (o'zi ixtiyori yoki ixtiyorisiz) qabul qilgan paytida sodir bo'lgan zo'ravonlik, shu bilan birga uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuzni, ta'qib yoki jinsiy zo'ravonliklarni idora ma'muriyatiga xabar berishiga o'zlarining xulqi oqibatidan qo'rqishi tufayli ikkilanishini tushunadi. RCC kampusi talabalarni uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuz, ta'qib yoki jinsiy zo'ravonlikni RCC ma'muriyat hodimlariga xabar berishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Har qanday uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuzni, ta'qib yoki jinsiy zo'ravonlikni xodimlarga yoki huquqni muhofaza qilish organlariga chin dildan xabar bergan guvoh yoki xabar beruvchi shaxs RCC's kampusining odob-axloq qoidalarining alkogol va/yoki giyohvand moddalar iste'mol qilish jazolariga tortilmasligini ma'lum qiladi.

O'quvchilar haq-huquqlari

Barcha talabalar quyidagi huquqlarga ega:

Mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari va/yoki shtat politsiyasiga xabar berishga;

Uydagi zo'ravonlik, uchrashuvdagi tajovuz, ta'qib va jinsiy zo'ravonlik haqidagi arizasini jiddiy o'rganilishi;

Jinoyat yoki zo'ravonlik haqida xabar berish yoki bermaslik haqida va sud yoki tergov jarayonida va/yoki jinoyat-tekshiruv jarayonlarida ma'muriyat bosimisiz ishtirok etish haqida qaror qabul qilish;

Tegishli bildirishnoma olgan holda va o'z fikrini ifoda etishga to'liq imkoniyat taqdim qilingan beg'araz, xolis sud jarayonida ishtirok etish;

Yaxshi muomala va imkoni bor hollarda insitut ma'muriyatidan izzat-hurmati joyiga qo'yilgan darajada va beg'araz tibbiy muolaja va maslahat xizmatlar ko'rsatilishi;

Jinoyat yoki zo'ravonlik sodir bo'lishida xabar beruvchining o'zi ham aybdor yoki jinoyat yoki zo'ravonlik oldini olish uchun boshqacha yo'l tutishi kerak edi, degan fikrdan holis bo'lish;

Sodir bo'lgan hodisani qayta-qayta tasvirlab berishga majbur bo'lmaslik uchun iloji boricha kamroq tegishli idoralar vakillariga tasvirllab berish.

Har bir talaba, ayblanuvchi va/yoki javobgar va/yoki ularning do'stlari, oila a'zolari va tanishlari institut tomonidan jazolanishdan institutning yuridik vakolatlari doirasida himoya qilinish;

Kamida bitta yuqori pog'onadagi organga ajrim bo'yicha appelyatsiya qilish;

Butun sud ishi davomida yoki xulq-atvor jarayonida, shu jumladan jarayonga tegishli barcha uchrashuvlar va sud majlislarida xabar beruvchi, ayblanuvchi yoki javobgar shaxs o'z xohishi bilan himoya qiluvchi va maslahat beruvchi maslahatchidan foydalanish;

Tergov, jinoiy ishlar xodimlari, sud yoki idora ichki tekshiruvi jarayonida o'zining fuqarolik huquqlarining to'liq ta'minlanishi va e'tiqodiga amal qilish.

Huquqlar irq, rangi, kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, yoshi, jismoniy holati, jinsi yoki uni qanday ifoda qilishi, jinsiy orientatsiyasi, oilaviy holati, homiladorligi, genetik xususiyatlari, harbiy statusi, mahalliy zo'ravonlik qurbonligi, yoki muqaddam jinoiy javobgarlikka tortilganligi, bundan tashqari jinoyat yoki zo'ravonlik kampus hududi yoki tashqaridaligiga, yoki xorijda o'qib yurganligidan qat'i nazar ta'minlanadi.

Siz Universitet politsiyasi yoki Kampus Xavfsizlik Xizmatiga, mahalliy huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish huquqiga yoki xabar bermaslik tanloviga egasiz; sodir bo'lgan hodisani ma'muriyatga xabar berish yoki, xabar berganingiz uchun o'zingizni ma'muriyat tomonidan himoya qilinishingiz uchun va ma'muriyatdan yordam va ko'mak olish uchun murojaat qilishingiz mumkin.